

**Boltayev Mansurjon
Sotivoldievich**

**FUQAROLIK
HUQUQI**

O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Boltayev Mansurjon Sotivoldievich

“FUQAROLIK HUQUQI”

O'QUV QO'LLANMA

60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

CHIRCHIQ - 2024

UO'K 347.132
KBK 67.410
B-80

Boltayev M.S. / Fuqarolik huquqi / O'quv qo'llanma — Chirchiq:
"Osiyo tur", 2024. — 248 b.

Taqrizchilar:

Q.Mexmonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, y.f.d.

Sh.Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasini mudiri, y.f.d.

ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kengashining 2023-yil 22-iyundagi 18-sonli majlisi bayoni bilan tasdiqlangan "Fuqarolik huquqi" moduli ("*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi*") ixtisosligi bo'yicha o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada fuqarolik huquqi tushunchasi, fanning predmeti, maqsadi va vazifalari, fuqarolik-huquqiy normalar va ularning turlari, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obektlari va subyektlari, bitimlar va shartnomalarning turlari, shakllari hamda ularga qo'yiladigan talablar, vakillik va ishonchnoma, fuqarolik huquqiy majburiyatlari, da'vo muddatlari, mulk huquqi va boshqa ashvoviy huquqlar, intellektual faoliyat tushunchasi va uning asosiy belgilari, mualliflik huquqini amalga oshirish jarayonlari kabi masalalar zamonaviy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari, professor-o'qituvchilari va izlanuvchilarga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabr kungi 537-son buyrug'i bilan nashrga tavsia etilgan.

UO'K 347.132
KBK 67.410

ISBN 978-9910-9026-9-7

© Boltayev M.S., 2024 y.
© "Osiyo tur", 2024 y.

MUNDARIJA

Kirish		4-bet
1-mavzu	Fuqarolik huquqi tushunchasi, tamoyillari va tizimi	6-bet
2-mavzu	Fuqarolik huquqining manbalari	20-bet
3-mavzu	Fuqarolik-huquqiy munosabat	35-bet
4-mavzu	Fuqarolar-fuqarolik huquqining sub'ekti sifatida	56-bet
5-mavzu	Yuridik shaxslar-fuqarolik huquqining sub'ekti sifatida	81-bet
6-mavzu	Davlat-fuqarolik huquqining sub'ekti sifatida	97-bet
7-mavzu	Fuqarolik huquqining ob'ektlari	112-bet
8-mavzu	Bitimlar	134-bet
9-mavzu	Vakillik va ishonchnoma	150-bet
10-mavzu	Muddatlar	165-bet
11-mavzu	Da'vo muddati	174-bet
12-mavzu	Mulk huquqi	189-bet
13-mavzu	Xususiy mulk huquqi	203-bet
14-mavzu	Ommaviy(davlat) mulk huquqi	213-bet
15-mavzu	Ashvoviy huquqlar	227-bet
Glossariy		236-bet

KIRISH

Mamlakatimizda barcha sohalarda keng islohotlarni amalga oshirilmoqda. To'liq bozor munosabatlariga o'tish, xususiy mulkning mavqeini oshirish, xususiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada kengroq qo'llab-quvvatlash, raqobat muhitini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

O'tkazilayotgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishga, aholi turmush farovonligini yuqori ko'tarishga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda huquqiy islohotlar ham keng ko'lamlı islohotlar barobarida qadam-baqadam rivojlanib bormoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar fuqarolik huquqi oldiga katta vazifalarni qo'ymoqda. Ma'lumki, fuqarolik huquqi yurisprudensiyaning asoslarida biri hisoblanadi va huquqiy munosabatlar tarkibida fuqarolik-huquqiy munosabatlar salmoqli mavqeini egallaydi. U mulkiy va shaxsiy huquqlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining yuridik jihatdan tengligiga asoslangan mulkiy, shaxsiy va tashkiliy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda, shaxslar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni shartnomaviy usulda tartibga solishda, ijodiy faoliyatni huquqiy muhofaza qilishda fuqarolik huquqi muhim o'rin tutadi. Zero, u kundalik yurish-turishimiz, amalga oshiradigan faoliyatimiz, o'zaro muloqotlar, tashkiliy-xo'jalik aloqalari, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarimizni qondirish kabi ko'plab hayotiy munosabatlarni tartibga soladigan, o'rganadigan huquq sohasi sanaladi. Zero, fuqarolik huquqi alohida huquq sohasi, ilm-fan sohasi va o'quv

predmeti hisoblanadi. Huquq sohasi ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni tartibga solsa va mustahkamlasa, ilm-fan esa uni o'rganadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlar va tub o'zgarishlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi bilan horijiy davlatlar hamda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va xorijiy rezidentlar o'rtasidagi global miqyoslardagi o'zaro munosabatlarni dinamik xarakteri huquqshunos kadrlarga nisbatan yangidan-yangi qat'iy talablar qo'ymoqda. Bu esa yuridik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi.

Butun dunyo huquq tizimlarida sivilistika deb ataluvchi mazkur huquq sohasi tartibga soluvchi munosabatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borgan. Shu sababli zamonaviy yurist fuqarolik huquqi fanini o'zlashtiribgina yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi mumkin.

Yangi milliy hoya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi sohasida kadrlarni tayyorlashda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlarni hisobga olgan holda darslik va qo'llanmalar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur holatlarni o'quvchilarga yetkazish ushbu darslikni yozilishiga turtki bo'ldi. Darslikni yozishda jahon va mahalliy sivilistika ilmi erishgan eng so'nggi yutuqlardan ijodiy foydalanildi hamda amaldagi qonunchilik va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar e'tiborga olindi.

1-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI VA TIZIMI

Fuqarolik huquqi tushunchasi, xususiyatlari va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi

Fuqarolik huquqi o'z mazmunini ifoda etuvchi munosabatlar xususiyati va tabiatiga ko'ra xususiy huquq tizimining eng yirik va markaziy tarmog'idir. Uning tartibga soluvchi munosabatlari doirasining kengligi, dispozitiv normalarning ustuvorligi, munosabatlar ishtirokchilarini cheklanmaganligi va teng huquqli asosda munosabatga kirishishligi, tartibga solish uslubi (metodi)ning o'ziga xosligi bilan boshqa xususiy huquq sohalaridan ajralib turadi.

Zamonaviy milliy huquq tizimida "Fuqarolik huquqi" atamasi ko'p ma'nolarda, ya'ni mustaqil, yirik huquq sohasi, mustaqil fan va ilm-fan tizimi sifatida qo'llaniladi.

Fuqarolik huquqi O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida shaxslarning moddiy, ma'naviy ehtiyojlarini tobora to'laroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquq normalari yig'indisidan iboratdir.

Fuqarolik huquqi – yuridik jihatdan teng bo'lgan sub'ektlar o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisidir.

Fuqarolik huquq normalari bilan tartibga solinadigan yuridik jihatdan teng bo'lgan sub'ektlar o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy, shaxsiy-nomulkiy va tashkiliy-huquqiy mazmundagi ijtimoiy munosabatlar – fuqarolik huquqi predmetidir. Fuqarolik huquqining predmetini ifodalovchi ijtimoiy munosabatlar doirasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida belgilab qo'yilgan.

Mazkur munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflar agar yuridik jihatdan teng huquqli bo'lib, FKning 2-moddasida nazarda tutilgan munosabatlarga kirishsagina, ular fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishgan hisoblanadi. Zero boshqa huquq sohalarida (oilaviy huquq, xo'jalik huquqi, ekologiya huquqi, qishloq xo'jalik huquqi, ma'muriy huquq, moliya huquqi, soliq huquqi, jinoyat huquqi va boshqalar) ham mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqiy munosabatlar vujudga keladi, lekin ular uchun ishtirokchilarning yuridik jihatdan tengligi hamda erk muhtoriyati xos emas.

Mulkiy va nomulkiy munosabatlar ular ishtirokchilarining teng huquqliligi, mulkiy mustaqillik, ushbu munosabatlarning haq evaziga amalga oshirilishi, ishtirokchilarning iqtisodiy jihatdan bir-biriga qaram bo'lmasligi, mol-mulkning alohida bo'lishi, yuridik teng huquqlilik, shaxsiy huquqlarning uzviy va daxlsiz bo'lishi ta'moyillariga asoslanadi. Ushbu belgilar ifodalanmagan mulkiy va